MUHAMMAD YUSUFNING “KO‘HNA QUDUQ” DOSTONI QORAQALPOQChA TARJIMASI XUSUSIDA

Kurboniyazov Gulmurza Allambergenovich – *filologiya fanlari doktori (DSc), professor*
gulmirza57@mail.ru
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

О КАРАКАЛПАКСКОМ ПЕРЕВОДЕ ДАСТАНА МУХАММАДА ЮСУФА "КУХНА КУДУК"

Курбониязов Гулмурза Алламбергенович – *доктор филологических наук (DSc), профессор*
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

REGARDING THE KARAKALPAK TRANSLATION OF MUHAMMAD YUSUF'S EPIC POEM "THE ANCIENT WELL"

Kurboniyazov Gulmurza Allambergenovich – *Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor*
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Tayanch so‘zlar: tarjima, tarjimon, asliyat, yaqin tillar, muqobil tarjima, lingvistik-transformatsion usul, shakliy-tarkibiy muvofiq frazemalar.

Rezyume. Maqolada Muhammad Yusufning “Ko‘hna quduq” dostonining qoraqalpoqcha tarjimasi asliyat bilan solishtirilgan. Tarjimada xato qo‘llanilgan so‘zlar, frazemalarning berilishi, muqobil qilingan tarjimalar dalillab ko‘rsatilgan. Undagi kamchiliklar va yutuqlar e’tirof etilgan.

Ключевые слова: перевод, переводчик, подлинный, родственные языки, альтернативный перевод, лингвистико-трансформационный метод, формально-структурно соответствующие фраземы.

Резюме. В статье сопоставлен каракалпакский перевод дастана Мухаммада Юсуфа “Кухна кудук” с оригиналом. В переводе указаны неверно использованные слова, фразеологизмы, альтернативные переводы. Признаны недостатки и достижения.

Key words: translation, translator, original, related languages, alternative translation, linguistic-transformational method, formally and structurally appropriate phrases.

Summary. The article compares the Karakalpak translation of Muhammad Yusuf's epic “The Ancient Well” with the original. In the translation, incorrectly used words, phrases are given, alternative translations are proved. Its shortcomings and achievements were acknowledged.

Kirish. O‘zbekiston xalq shoiri, “Do‘stlik” ordeni sohibi Muhammad Yusuf juda ham kam umr ko‘rgan bo‘lsa-da, xalqning qalbiga kirishga ulgurgan shoirlar sirasiga kiradi. Ijodkorning asarlari har yili nashr qilinadi, sababi uning kitobxonlari hozir ham ko‘pchilikni tashkil qiladi. Asarlari nafaqat o‘zbek xalqi orasida, balki qardosh tillardan qoraqalpoq va turk tillariga ham tarjima qilinib, ijod namunalari boshqa xalqlar orasida ham alohida o‘rin egallamoqda. Xususan, qoraqalpoq xalq vakili, shoir, tarjimon Bazarbay Seytayevning “Biz baxıtlı bolamız” nomi ostida chop etilgan tarjima she’rlari shular jumlasidandir. Bu kabi tarjima asarlarni tahlil qilish, tarjimonning yutuqlarini e’tirof etish hamda kamchiliklarini ko‘rsatib berish muammolari bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

Asosiy qism. Barchamizga ma’lumki, Muhammad Yusuf ijodida she’rlar qatorida bir nechta dostonlar ham o‘rin olgan bo‘lib, “Ko‘hna quduq” dostoni shular jumlasiga kiradi. Bu dostonning qoraqalpoqcha tarjimasi B.Seytayev tomonidan o‘girilgan bo‘lib, yuqoridagi to‘plamga kiritilgan. Qilingan tarjima ishlarni tahlil qilish orqali asliyat va tarjima o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatish lozim. Misol uchun, asliyatda quyidagicha berilgan:

O‘zin dardi o‘ziga ayon,
Bir men desam, sen ham ***notavon*** [2:119]

Tarjimada:

Óziniń dárti ózine ayan,
Bir men emes, sen dağı ***giryan*** [3:37]

Asliyatning ikkinchi misrasidagi “notavon” so‘zi tarjimada “giryan”ga o‘zgartirilgan. Ularning ifodalaydigan semalari esa turlicha, jumladan, “notavon” so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “**1** Hol-qudrati yo‘q; zaif; nimkon, nogiron. *Notavon kampir*. **2** *ko‘chma* Nochor, bechora. *Men g‘urbat tortib, bag‘ri ezilgan bir notavonman, rahm qiling!* Hamza, Boy il xizmatchi” [10:62], – deya izohlangan. Qoraqalpoq tilidagi “giryan” so‘zi esa “yig‘lash” ma’nosida ishlatiladi. Tarjimonning noto‘g‘ri tarjimasi sababli mazmunida g‘alizlik yuzaga kelgan. Asliyat va tarjimani tahlil qilar ekanmiz, ancha xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan ekan. Xususan, asliyatdagi:

Minorlarning bo‘ylari uzun,
O‘zidan-da o‘ylari uzun,
Ertakdayin soylari uzun,
Sen ham uzun g‘amga o‘xshaysan [2:110]

bandining 3-misrasi tamomila o‘zgartirilgan. Tarjimada:

Minarlardıń uzın boyları,
Ozinen de uzaq oyları,
At basınday kóp dur ármanı,
Sen de uzaq ǵamǵa uqsaysań [3:37]

Asliyatning 3-misrasidan “Soylari ertakdagidek uzun” ma’nosi anglashiladi. Tarjimada esa “armoni juda ham ko‘p” ma’nosini ifodalovchi misraga o‘zgartirilgan. Tarjimonning bu tahriri noto‘g‘ri, chunki bandning umumiy ma’nosiga salbiy ta’sir qilgan.

Tarjima tahlili davomida lingvistik-transformatsion usuldan ham foydalanildi, ya’ni mutarjim tomonidan asliyatda mavjud bo‘lmagan bir qancha qo‘shishlar ham kuzatildi. “Fayzullaxon Inqilobga boshini tikdi. Shop-mo‘ylov Stalin esa qilich bilan chopib tashladi bu boshni!” [2:110], – deya keltiriladi dostonda. Tarjimada esa bu ikki gap orasiga gap qo‘shilib o‘girilgan: “Fayzullaxan revolyutsiya dep basın tikti. Al, revolyutsiya bul bul bastı

bawırına basıp ádiwlep ardaqladı. Murtlash Stalin qılısh penen bul bastı shawıp tasladı!" [3:37]. Muhammad Yusuf ijodida bo‘lmagan bu gapni qo‘shish o‘rinsiz, chunki asliyatda qanday berilgan bo‘lsa, tarjimada ham shunday berilishi lozim. Bu haqida tarjimashunos olim G‘.Salomov quyidagicha fikr bildirgan: "Tarjima ijoddir. Zotan, unda shakl bilan mazmun alohida emas, balki yaxlit holda qayta tiklanadi. Tarjimon asl nusxaga monand bir taxlitda shakl bilan mazmun birligini qayta yaratmog‘i darkor" [8:97]. Shu sababli tarjimon asl nusxaning ham shaklini, ham mazmunini saqlashi kerak. Yuqoridagi misolda tarjimonning o‘zidan qo‘shganligi mazmuniga ham salbiy ta’sir qilgan. Bu kabi o‘zidan qo‘shishlar dostonning boshqa o‘rnida ham mavjud: "Unga obidalarning, betakror qasrlarning buyuk me’mori – Sinosi yetishmay turibdi. Ulug‘bek Mirzoning nazari yetishmay turibdi" [2:114]. Tarjimada bu quyidagicha keltirilgan: "Oǵan esteliklerdiń, tákirarlanbaytuǵın gúmbezlerdiń ullı ustası shıpakeri – Sinosı jetispey turıptı. Házireti Nawayınıń názeri jetispey turıptı. Mırza Ulıǵbektıń názeri jetispey turıptı" [3:41]. Asliyatda mavjud bo‘lmagan gapni qo‘shish o‘rinlimikan? Aslida asliyatga Ibn Sino tabib bo‘lganligi sababli, Mirzo Ulug‘bek esa Buxoroda Ulug‘bek madrasasini qurdirganligi sababli qo‘shilgan, bizning nazdimizda. Ammo tarjimon Navoiyni qo‘shganiga izoh topa olmadik. Shuning uchun asliyatdan chetga chiqsa, mazmunga putur yetadi.

O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari bir-biriga ham hudud jihatdan, ham til jihatdan, ham madaniyat jihatdan juda yaqin. Ko‘pincha ular bir-birlarini tarjimonsiz ham tushunishadi, ammo tarjimonlarning kamchiliklari chiqaveradi. Asl nusxada berilgan so‘zni xato anglagan holda noto‘g‘ri o‘giradi. Quyida bir qancha misollar keltiramiz:

Tosh shahrida uyim –
Boloxona edi.
Bir burchagi o‘rin,
Biri kitob bari...
Menga tinchlik
Bermay qiynar
Mana endi,
Tushlarimda,
Buxoroning ***ohulari*** [2:116]

Tarjimada:

Tas qalada úyim –
Balaǵa tolı edi,
Bir múyeshi orın,
Biri kitap bári...
Maǵan tınıshlıq,
Bermey qıynar,
Mine endi,
Túslerimde
Buxaranıń ***aqquwları*** [3:43]

Asliyatning ikkinchi misrasidagi keltirilgan "boloxona" so‘zining izohi "Mahalliy tipdagi imoratning ikkinchi qavati va shu ikkinchi qavatdagi xona" [9:309] deb O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilgan. Tarjimon bu so‘zni "bolaga to‘la edi" deb o‘girgan. Uning yanglishganiga mutarjimning asliyat tilini chuqur bilmasligi, o‘zbek tilidagi ba’zi so‘zlar tarkibidagi *o* grafemasi qoraqalpoq tilida *a* grafemasi bilan ifodalanishi sabab bo‘lgan. Tarjimonning yana bir qo‘pol xatosi shuki, u "Chiroyli qora ko‘zli kiyik" [11:197] ma’nosini ifodalovchi ohu so‘zini noto‘g‘ri tarjima qilgan, ya’ni "Uzın boylı, iymek moyınlı, suwda juzetuǵın úlken qus" [5:49] ma’nosini anglatadigan aqquw so‘zi bilan bergan. Aqquw so‘zi o‘zbek tilida oqqush deya istifoda etiladi. Bu kabi xatoliklar yuzaga kelmasligi uchun ikki tilda ham mavjud bo‘lgan izohli lug‘atlardan foydalanish lozim.

Bundan tashqari bu dostonning nasr bilan yozilgan joylarida yana xatoliklar uchraydi. "Zax bosib yotibdi bu qadimiy hujralar. Balki xuddi shu sabab ham nurab yotgandir Buxoro?" [2:109] gapining tarjimada berilishi: "Qurım basıp atır bul ójirelerdi. Bálkim, usı sebepten kópship atırǵan shıǵar Buxara?" [3:36]. O‘zbek tilining izohli lug‘atida zax so‘zining ma’nolari "1 Suvi ko‘p, sernam, zahkash yer. 2 Sernam, zahkash joy; namlik" [10:140] tarzida berilgan. Tarjimada qo‘llanilgan qurım so‘zining izohi Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligida "Tútinnen payda bolǵan qara qoqshıl uyısqan zat, ıs. Bári de qaranǵı, patas ishin qurım basqan jaydıń ishinde jatqan eken" [5:46] deya keltirilgan. Demak tarjimon sernam, suvi ko‘p, zahkash joyni tutundan paydo bo‘lgan qora narsaga almashtirib qo‘ygan.

Yaqin tillarda tillararo omonimlar uchraydi, bu so‘zlar shaklan o‘xshash, ifdalaydigan semalari turlicha bo‘lgan so‘zlardir. Tarjimon ikki tilda mavjud bo‘lgan, shakli o‘xshash bo‘lgani uchun chalg‘iydigan "aldoqchi so‘zlar"dir. Bu haqida Z.Isomiddinovning maqolasida ham bayon qilingan [1:161]. Tarjimon B.Seytayev ham ushbo doston tarjimasida tillararo omonimlarga chalg‘ib, xatolikka qo‘l qo‘ygan va misralar mazmuni o‘zgarib ketgan. Asl nusxada:

Biz suv ichgan quduq yodingizdami,
Baland mehrobdagi muqaddas ***kalom****?* [2:113]

Tarjimada:

Biz suv ishken qudıq yadıńızda ma,
Bálent mehrabtaǵı múqaddes ***qalam****?* [3:40]

Asliyatda shoir "Biz suv ichgan quduq, baland mehrobdagi muqaddas kalom, ya’ni "so‘z; nutq, gap-so‘z; so‘zlash" [9:301] yodingizdami" demoqchi. Tarjimon esa "Biz suv ichgan quduq, baland mehrobdagi qalam, ya’ni "shahar, kent" [5:327] yodingizdami" deya noto‘g‘ri o‘girgan.

Dostonda berilgan ba’zi frazemalar tarjimasi xususida ham to‘xtalmoqchimiz. Ma’lumki, frazemalar, asosan, bir xalqqa xos bo‘ladi, ularni boshqa tilga so‘zma-so‘z usulda o‘girib bo‘lmaydi. So‘zma-so‘z usul orqali o‘girilgan frazemalar noto‘g‘ri deya baholanadi. Ammo qardosh tillardagi, ya’ni o‘zbek va qoraqalpoq tillardagi frazemalarning ko‘pchilikqismi bir-biridan faqatgina fonetik jihatdan farq qilishini kuzatdik. Bunday frazemalarni shakliy-tarkibiy muvofiq frazemalar sirasiga kiritamiz. Quyida bir qancha misollar orqali tahlil qilamiz. Asl nusxada:

O‘g‘lim shoir!
Onam ***yer-u ko‘kka***
Sig‘mas [2:116]

Tarjimada:

Ulım shayır!
Anam ***jer-kókke***
Sıymas [3:134]

Ushbu frazemalar har ikki tilda mavjud bo‘lib, ikki xil semani anglatadi: 1) maqtandi; 2) juda mo‘l [4:70]. Bundan anglashiladiki, tarjimon frazemani to‘g‘ri tarjima qilgan. Frazemalar, odatda, badiiy adabiyotning deyarli barcha

turida qo‘llaniladi, chunki ular badiiylikni yana ham oshiradi, xalqchillikni ta’minlaydi, muallifning tilning boy imkoniyatlaridan foydalanganligidan dalolat beradi. Asliyatda berilgan frazemaning qoraqalpoqcha tarjimasi ham jarangdor bo‘lgan o‘rinlarga misol keltiramiz:

Orol dengiz, Orol bechora dengiz,
Zilol dengiz uvol-ovora dengiz.
***Baxti qora,** manglayi qora dengiz,*
Ko‘z o‘ngimda, ko‘z o‘ngimda berar jon [2:120]

Tarjimada:

Aral teńiz, Aral biyshara teńiz,
Tınıq teńiz, kewili jara teńiz.
***Baxtı qara, mańlayı qara** teńiz,*
Kóz aldımda, kóz aldımda berer jan [3:46]

Asliyatdagi baxti qora frazemasi “Hayoti xorlik-zorlik bilan, azobda o‘tadigan”[7:64]; ko‘z o‘ngida frazemasi “Bevosita ko‘ringan, kuzatilgan holda” [7:258]; jon bermoq frazemasi “O‘lmoq, so‘nggi marta nafas chiqarmoq” [7:222] ma’nolarini ifodalashi O‘zbek tilining frazeologik lug‘atida keltirilgan. Tarjimadagi baxtı qara frazemasi “baxıtsız, sorlı, biyshara, áwmetsiz” [4:34]; kóz aldımda frazemasi “Júzbe-júz, betpe-bet” [4:94]; jan berdi frazemasi “Qurban boldı, óldi” [4:64] ma’nolarini izohlagan. Shu bois bu frazemalarni muqobil tarjimaga kirita olamiz.

Ushbu dostonni tarjimani bilan qiyos qilish davomida tarjimonning mahorati ham ko‘zga tashlanadi. Quyidagi jadvalda asliyat kabi tarjima qilingan bandlarni ko‘rish mumkin:

Asliyatda	Tarjimada
Otdim vaqt yukini yelkadan osha,	*Attım waqıt tasın jelkemnen asırıp,*
Yo‘ldan surdim temir panjarasini,	*Joldan ısırıp taslap temir qursawın.*
Ko‘zimga yosh olib qildim tomosha,	*Kózime jas alıp ettim tamasha,*
Hazrat Bahoviddin maqbarasini.	*Házireti Bahawatdin maqbarasın.*
Buxoroi sharif, muqaddas beshik,	*Buxarayi sharif, muqaddes besik,*
Ne-ne allomalar dunyoga kelgan.	*Ne bir ulamalar dúnyaǵa kelgen.*
Bunga shohlar kirgan kavushin yechib,	*Buǵan shahlar kirgen gewishin sheship,*
Bu joyga amirlar piyoda kelgan [2:112]	*Bul jerge ámirler piyada kelgen* [3:38-39]

Xulosa. Xulosa sifatida aytish joizki, bu kabi tarjima asarlarni tahlil qilish davomida tarjimonni qoralashdan yiroqmiz. Uning faqat kamchiliklari emas, balki yutuqlari ham e’tirof etildi. Tarjimonlar ishga kirishishdan avval, birinchi navbatda, asliyat tilini va tarjima tilini chuqur o‘rganishi lozim. Ikki tilning barcha unsurlarini o‘rganishi, zarur bo‘lsa, lug‘atlardan foydalanishi lozim. Hozirgi kunda tarjimonlar uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan, ikki tilda, ya’ni o‘zbek tilida ham, qoraqalpoq tilida ham izohli lug‘atlar mavjud. Tarjimaning qay darajada ekanligi, avvalo, tilda namoyon bo‘ladi. Har bir qilingan tarjima asarni til nuqtai nazardan tahlil qilish o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi.

Adabiyotlar

1. Исомиддинов З. Алдоқчи сўзлар билан баҳс. // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 5-китоб. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1980.
2. Muhammad Yusuf. Saylanma. – Toshkent: «Sharq», 2019.
3. Муҳаммед Юсуф. Аўдарған Б.Сейтаев. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2004
4. Пахратдинов Қ., Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилиниң фразеологизмлер сөзлиги. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2018.
5. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Төртинши том. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2023.
6. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Бесинши том. – Нөкис: «Қарақалпақстан», 2023.
7. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N. va boshqalar. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: «G‘afur G‘ulom» nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
8. Саломов Ғ., Таржима назарияси асослари. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1983
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2020.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. Иккинчи жилд. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2020.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. Учинчи жилд. – Тошкент: «O‘zbekiston», 2020.